

MAKTABLARDA ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARING QO'LLANILISHI

Axmatova Dildora Abdullayevna
Uchquduq tumani kasb-hunar maktabi
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktablarda ona tili va adabiyot darslarida innovatsion texnologiyalarining qo'llanilishi, ona tili va adabiyot darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lif mazmuniga singdirish, ona tili va adabiyot darslari davomida komputer texnologiyalardan foydalanish haqida batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ona tili, adabiyot, innovatsion texnologiyalar, noan'anaviy darslar, komputer texnologiyalari.

Kirish:

Ma'lumki, ona tili va adabiyot darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lif mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lif standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissini kamol toptirishda ona tili va adabiyot darslarining o'rni muhimdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Yana bir e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihat shuki, bu ona tili va adabiyot darslari mobaynida komputer texnologiyalardan foydalanishdir. Buning uchun birinchi o'rnida o'qituvchi sinfonani kerakli jihozlar bilan ta'minlanishini tashkil qilishi, so'ngra mavzuga oid taqdimotlar, videolar, qisqa filmlar, rasmlar va ijod namunalarini yaratishi yoki internet saytlaridan sifatlilarini tanlab yuklab olishi kerak.

Ona tili va adabiyot fanining chuqur o'zlashtirilishi zamonaviy pedagog foydalanadigan interfaol metodlar, o'yinlar va komputer texnologiyalaridan samarali foydalanish yordamida yanada puxta, oson va tez bo'lisi mumkin. Buning asosiy sababi, ular o'quvchilarning ijodkorligini va dunyoqarashini kengaytirishga, visual o'rganishni takomillashtirishga va albatta o'quv jarayonining qiziqarliroq va sifatliroq tashkil qilishiga yordam beradi.

Bu usul Grammatik tomondan murakkab mavzularning oson tushunilishiga, rasmlar yordamida o'quvchilarning mustaqil oddiy gapdan to kichik matn tuza olish qobiliyatini o'stirishga, adabiyot namoyondalari hayoti va ijodini ko'z oldida gavdalantirish va yaxshiroq yodda saqlashga, ularning ijod namunalaridan ekran orqali bahramand bo'lishga yordam berishi bilan alohida xarakterlanadi.

Natijalar:

O'quvchining mustaqil fikrlashi, o'zgalar fikrini anglashi, nutq va muloqot madaniyati rivojlanishi uchun ona tili ta'limi standart talablariga javob berishi, ona tilini kommunikativ va lingvistik kompetentsiyasi bo'yicha etarli darajada egallashlari ko'zda tutiladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda XXI asr pedagogidan nafaqat nazariy bilim balki shu bor bilimni o'quvchilar ongiga samaraliroq usullar yordamida yetkazish, berilgan bilimning oson, puxta va tez o'zlashtirilishiga zamin yaratish, o'quvchilar ongida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va ravonlikni takomillashtirish ham talab qilinmoqda.

Muhokama:

Adabiy ta'lim o'z oldiga bir qator maqsadlarni qo'yadi. Majburiy ta'lim tizimidagi adabiy ta'lim asosan sof ilmiy maqsadlarni emas, balki ma'naviy-axloqiy yo'nalishlar ustuvorligini ko'zda tutadi. O'quvchilar milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'qish va tahlil etish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va qusur haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi, ularga ongli va jonli munosabat bildirishadi, shular yordamida o'zlaridagi axloqiy-ma'naviy fazilatlar majmuining takomillanishi va rivojiga imkon topishadi. Ularga nisbatan ochiq hayotiy munosabatlarni aks ettirish zaruriyati esa o'quvchilar og'zaki hamda yozma nutqlarining rivojida asosiy omil vazifasini ado etadi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ta'limning hamma bosqichlarida ona tilini o'qitishning asosiy maqsadi o'rganuvchilarning kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishdan iboratdir. Ona tili va adabiyot darslarini har bir mavzu doirasida o'zaro turdosh va boshqa fanlar bilan bog'langan holda tashkil etish, o'quv jarayonining mazmunli bo'lishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. To'qliyev B., Niyozmetova R. va b. Til adabiyot ta'limining zamonaviy texnologiyalari. Toshkent, 2011.
2. Usmonova K., Xayitov A. Ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Toshkent, 2011.
3. Abdullayeva M. "O'zbek tili va adabiyotini o'qitish texnalogiyalari va loyihalashtirish" fanidan ma'ruzalar matni. – T., 2017.
4. Abduraimova M. Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2005.